

**ANIMALISTIK JANR**

Azimova Dilfuza Xusenjonovna

Samarqand viloyati Samarqand shahri

63-maktab Tasviriy san'at va chizmachilik fani 1-toifali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada animalistik janr va uning mohiyati, kelib chiqishi tarixi, ahamiyati hamda uning rivojlanishi, animalistik janri orqali yosh avlodni hayvonot olamini yanada sevishga, asrab avaylashga o'rgatish va uni targ'ib etish borasida fikrlar yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Tasviriy san'at, animalistik, janr, ibtidoiy jamoa davri, Zaravutsoy, flora va fauna, rassom, tabiat.

Ibtidoiy jamoa davri insoniyat tarixi taraqqiyotidagi dastlabki, voqea-hodisalarga hissiy sodda tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga o'z munosabatlarini badiiy timsollarda bildirib boshlagan ilk jamoachilik davridir. Ushbu bosqich yer yuzining deyarli, barcha joylarida bosib o'tilgan bo'lib, taraqqiyot davomida odamlarning dastlabki tasavvuri, badiiy-estetik his-tuyg'ulari shakllana boshlagan.

Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'hna mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof muhit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda na'munalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyat davrining ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashdi.

O'z davrining sodda hayotiy ko'rinishini ifodalovchi devoriy suratlar, dekorativ uslubdagi shartli harakterli haykaltaroshlik na'munalarida buni kuzatish mumkin. Bu kabi tasvirlar asosan g'or devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan animalistik janriga xos na'munalardan iboratdir. Hayvonlarni ovlash bilan bog'liq



voqea hodisalar sxematik shakllarda talqin etilgan. Poleolit davrining so'ngi pallasidan esa hayvonlarning tasviri ancha hayotiy aniq ko'rinish kasb etib, tana mutanosibligi, plastik anatomiyasi va harakatlarini to'g'ri ifodalash bo'yicha katta ijodiy tajribaga erishilganligi kuzatiladi. Tasviriy ifodalar qadimgi davrlarida beqiyos ahamiyat kasb etgan. Chunki eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan: ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish mumkinki, animalistik janrga oid bo'lgan tasvirlar o'sha davrlardan boshlab rivojlangan. Hozirgi o'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Qadimgi tasvirlardan ham kuzatadigan bo'lsak, insoniyatning tabiatga nisbatan kuztuvchanlik, shakl va chiziqlar orqasida bo'layotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, daraxtlar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma – xildir. Ularda turli manzaralar, hayvonlar, ov jarayonlari o'z aksini topgan. Yuqoridagi dalillardan ko'rinib turibdiki ajdodlarimiz hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o'rin tutgan. O'zbek san'atida bu janr qadimiy bo'lib ibtidoiy davrning paleolit va ayniqsa mezolit va neolit davrida hayvonlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratildi. Zarautsoy rasmlari, Taqatosh, Xo'jakent tasvirlari shunga misol bo'la oladi. Tuproq qala, Varaxsha, Afrosiyob devoriy rasmlarida ham hayvonlar tasviri keng uchraydi. O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrosiyob freska va haykallarida yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvohi bo'lamiz. Animalistik janrda asosan, haykaltaroshlarimiz salmoqli ijodiy asarlar yaratganining guvohi bo'lamiz. 60-yillardan boshlab M.Musaboyev, A.Boymatov, J.Quttimurodov kabi o'nlab istedodli haykaltaroshlar ijod olamiga kirib keldilar. Xuddi shunday hozirgi



kunda ham tasviriy san'at inson hayotida muhim o'rinni egallaydi. Uzoq yillar tasviriy san'at rivojlanish bosqichida, tur va janrlarda ijod qilish shakllanib bordi. Jumladan janrlar ichida animalistik janr ham rivoj topdi. Animalistik janrda hayvon va qushlarning tashqi ko'rinishini, xarakterli jihatlarini, tasvirlanishini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Animal - lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hayvon" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarni rasmini ishlovchi rassomlarni animalist rassomlar deb yuritiladi. Bunday rassomlarning tabiatga, uni mahsuli hayvon zotiga muhabbati kuchli bo'ladi. Uyg'onish davri rassomlari Leonardo da Vinchi, Alberx Dyurerlar ham hayvonlarning o'ziga qarab rasmini ishlashgan.

Animal janrining rivojlanishi va mustaqil janrga aylanishi XV-XVII asrlarga borib taqaladi. Bu janrni boshlovchilari gollandiyalik A. Keyp va P.Potter hisoblanadi. Ular uy hayvonlarini tabiat qo'ynida, yaylovlarda mohirona tasvirlagan. Hayvonlar obrazini yaratish uchun uning harakterini bilish lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga go'sht, tuxum, jun va boshqa narsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash, insonlarga har qanday damlarida hamroh bo'lish uchun yaratilgandir. Qadimgi Yaponiyada va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qiyofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks etgan. Hayvonlar obrazini rasmlarda yaratish avvalo qadimdan rivojlanib kelgan. Ovdagi yutug'ini ham chizgan rasmi bilan bog'liq deb bilganlar. Bu ularning psixologik ta'yyorgarligiga qarab borishi deyish mumkin. Shuning uchun ham ularda qo'rqqanlik, tabiat qoidasiga bo'ysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Tasviriy san'atda animalistik janr o'zining estetik qiymatidan tashqari, inson va hayvon munosabatlarini, tabiat va atrof - muhitga oid kengroq mavzularni o'rganish vositasi bo'lib, ham xizmat qilishi mumkin. Ba'zi rassomlar animalistik san'atdan tabiatni muhofaza qilish, hayvonlar huquqlari va inson faoliyatining tabiiy



dunyoga ta'siri kabi masalalarni sharhlash usuli sifatida foydalanadilar. Bundan kelib chiqadiki, animalistik janr tabiatni, hayvonlarni asrashga katta ta'sir ko'rsatadi va bu janrning yanada rivojlanishi hayvonot olamining hayotida yetarlicha o'rin egallaydi. Tasviriy san'atning animalistic janrida rassom P.Mordvinsey tomonidan yaratilgan "Jimlik" nomli asarida ot va qulunning yaylovdagi tasvirini ko'rish mumkin.

Bugungi kunga kelib, ham animalistik janri o'ziga yarasha ahamiyatga ega. Ushbu janrda hayvonot dunyosini tasvirlash bosqichi haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, biz tasviriy san'at darslarida qush va hayvonlar rasmini tasvirlashda avvalo, tulumiga qarab turli ko'rinishlarda mashq qilishimiz maqsadga muvofiq. Buning uchun hayvon va qushlarni sinchiklab kuzatish va o'rganishimiz so'ng, tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvon va qushlar rasmini tasvirlashga o'tishimiz mumkin. Hayvonot olamining jonli holatda tasvirini ishlash juda qiyin bo'lib, ular tinmay harakat qilib turishi natijasida aniq tasvirini olish murakkab jarayondir. Hayvonlar vaqushlar rasmini chizishda xam farq bo'lib, ot, qo'y, echki kabi hayvonlar tasviri birmuncha qiyin. Chunki, ularning tana va suyak tuzilishi murakkabdir. Suyak tuzilishini o'rganish ham tasvir chizishda katta yordam beradi. Demak, fauna olami tasvirini tugal ravishda ishlash murakkab jarayon. Shu sabab, tirik hayvon va qushlarning faqat xomaki tasviri chiziladi. Animalistik janrining ahamiyati nafaqat tasviriy san'atda balki hayvonot dunyosida ham muhim o'rin egallaydi. . Ona tabiatning o'zi buyuk musavvir. Undagi jamiki tirikliklar o'zgacha birajoyibot. Biz ijodkorlar animalistik janrda faqatgina hayvonlarni tasvirlabgina qolmay, yosh avlodga hayvonot dunyosining naqadar go'zalligini hamda ularning his tuyg'ulari-yu, inson hayotidagi ahamiyatini ham ko'rsatib, tushuntirib o'tishimiz lozim. Buning uchun ushbu janrdagi an'anaviy va zamonaviy uslublardagi ijodiy ishlarni ko'paytirish va bunga tomoshabinni jalb eta olmog'imiz kerak. Zero, tabiatni va undagi flora hamda fauna olamini asrab avaylash har birimizning vatan oldidagi burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Pulatov. "Tasviriy san'at tarixi". O'quv uslubiy qo'llanma. "Namangan". Namangan 2018



2. Rahim Hasanov. “Tasviriy san’at asoslari”. Qo’llanma. Toshkent 2008
3. O.N. Shomurodov . “Tasviriy san’at tarixi” Buxoro 2021
4. N.D.Abdullayeva. “San’at tarixi” O’quv qo’llanma.“O’zbekiston”.Toshkent 2006